


**YALPI ICHKI MAHSULOTNI
ISHLAB CHIQRARISH**

Dastlabki ma`lumotlarga ko`ra, 2019-yilda O`zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmi joriy narxlarda 511 838,1 mlrd. so`mni tashkil etdi va 2018-yil¹ bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o`sdi. YaIM deflyator indeksi 2018-yildagi narxlarga nisbatan 119,2 % ni tashkil etdi.



**2017-2019-yillarda O`zbekiston Respublikasining YaIM hajmi
(joriy narxlarda, trln. so`m)**

2019-yil yakunlariga ko`ra, YaIM tarkibida tovarlar ishlab chiqarishda 300 304,2 mlrd. so`m, xizmatlar ko`rsatish sohasida - 165 053,2 mlrd. so`m miqdorida yalpi qo`shilgan qiymat yaratildi, mahsulotlarga sof soliqlar esa 46 480,7 mlrd. so`mni tashkil etdi.



**2017-2019-yillarda YaIM fizik hajm indeksi va deflyator indeksi dinamikasi
(o`tgan yilga nisbatan % da)**



Keltirilgan diagrammada ko`rinib turibdiki, 2019-yilda YaIM o`shishi 2018-yildagi 5,4 % va 2017-yildagi 4,5 % ga nisbatan 5,6 % gacha jadallashdi. YaIM deflyator indeksining o`shishi esa 2018-yildagi 27,5 % va 2017-yildagi 19,4 % ga nisbatan 2019-yilda 19,2 % gacha sekinlashdi.

¹ Bu yerda va keyingi o`rinlarda 2018-yil uchun aniqlik kiritilgan ma`lumotlar keltirilgan.


YaIM iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi va ushbu birliklar tomonidan yakuniy foydalanish uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati orqali o'lchanadigan milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichlaridan biridir.

YaIM fizik hajm indeksi (real o'sish sur'ati), doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri YaIMni (real YaIM), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri YaIMga nisbati orqali hisoblanadi.


YaIM deflyator indeksi iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YaIMning (joriy narxlardagi hisobot davri YaIM) real YaIMga nisbati orqali hisoblanadi.



2017-2019-yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM hajmi (joriy narxlarda, ming so'm)



2017-2019-yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YaIM o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2019-yil yakunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining o'rtacha yillik kursi bo'yicha hisoblangan YaIM hajmi 57 907 mln. AQSh dollarini tashkil etdi (2018-yilda - 50 397 mln. AQSh doll.).

Ma'lumot uchun: AQSh dollarining so'mga nisbatan rasmiy kursi o'rtacha yillik hisobda 2018-yilda 8 069 so'm, 2019-yilda 8 839 so'mga teng bo'lgan.

Aholi jon boshiga hisoblangan YaIM 15 242,0 ming so'mni (yoki 1 724 AQSh doll. ekvivalentida) tashkil etdi va bu ko'rsatkich 2018-yil bilan taqqoslaganda 3,6 % ga o'sdi. Aholi jon boshiga YaIM o'sishi 2017- va 2018-yillarda mos ravishda 2,7 % va 3,6 % ni tashkil etgan.

Ma'lumot uchun: Aholi jon boshiga YaIM, joriy narxlardagi YaIM umumiy hajmini mamlakatning ma'lum bir davrdagi o'rtacha aholisi soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisining yillik o'rtacha soni 2017-yilda 32 389 ming kishini, 2018-yilda 32 956 ming kishini va 2019-yilda 33 581 ming kishini tashkil qilgan.

Ma'lumot uchun:

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasining xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha YaIM hajmi 282,0 mlrd AQSh doll.ni tashkil etdi. 2018-yilda MDHning boshqa davlatlarida XQP bo'yicha hisoblangan YaIM hajmi quyidagicha: Rossiya Federatsiyasida - 4050,8 mlrd. AQSh doll.; Qozog'istonda - 509,5 mlrd. AQSh doll.; Ukrainada - 391,0 mlrd. AQSh doll.; Belarusda - 189,7 mlrd. AQSh doll.; Ozarbayjonda - 179,4 mlrd. AQSh doll.; Turkmanistonda - 112,9 mlrd. AQSh doll.; Tojikistonda - 31,4 mlrd. AQSh doll.; Armanistonda - 30,5 mlrd. AQSh doll.; Moldovada - 25,8 mlrd. AQSh doll.; Qirg'izistonda - 24,5 mlrd. AQSh doll.

Manba: <https://www.worldbank.org>.



2017-2019-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM ishlab chiqarish hajmi (joriy narxlarda, mlrd. so'm)

	2017-yil	2018-yil	2019-yil
I. YaIM, jami	302 536,8	406 648,5	511 838,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	267 744,8	361 072,7	465 357,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	34 792,0	45 575,8	46 480,7
II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	267 744,8	361 072,7	465 357,4
Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	90 983,9	113 660,7	130 599,9
Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	74 799,0	117 905,0	169 704,3
sanoat	59 570,4	95 803,9	139 812,8
qurilish	15 228,6	22 101,1	29 891,5

	<i>2017-yil</i>	<i>2018-yil</i>	<i>2019-yil</i>
Xizmatlar	101 961,9	129 507,0	165 053,2
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	21 540,6	26 747,9	32 191,5
tashish va saqlash, axborot va aloqa	25 305,5	30 616,0	35 824,0
boshqa xizmat tarmoqlari	55 115,8	72 143,1	97 037,7



**2017-2019-yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**


	<i>2017-yil</i>	<i>2018-yil</i>	<i>2019-yil</i>
I. YaIM, jami	100,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	88,5	88,8	90,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	11,5	11,2	9,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0
Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	34,0	31,5	28,1
Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	27,9	32,6	36,4
sanoat	22,2	26,5	30,0
qurilish	5,7	6,1	6,4
Xizmatlar	38,1	35,9	35,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	8,0	7,4	6,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	9,5	8,5	7,7
boshqa xizmat tarmoqlari	20,6	20,0	20,9

2017-2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarining qiyosiy tahlili sanoat tarmog'i ulushining 30,0 % gacha oshishi (2018-yilda - 26,5%, 2017-yilda - 22,2 %) va qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi tarmog'i ulushining 28,1 % gacha (2018-yilda - 31,5 %, 2017-yilda - 34,0 %) kamayishi bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni qayd etish imkonini beradi.



2019-yilda YalMning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan % da)

Shuningdek, hisobot yilida YalM (YaQQ) tarmoqlari tarkibida qurilish tarmog'i ulushining 6,4% gacha o'sishi (2018-yilda - 6,1 %, 2017-yilda - 5,7%) va xizmatlar sohasi ulushining 35,5 % gacha pasayishi (2018-yil - 35,9%, 2017-yilda - 38,1%) kuzatildi.



2017-2019-yillarda YalMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)


	2017-yil	2018-yil	2019-yil
I. YalM, jami	104,5	105,4	105,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	104,3	105,4	105,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	105,7	105,9	105,6
II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati	104,3	105,4	105,6
Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi	101,2	100,3	102,5

	2017-yil	2018-yil	2019-yil
Sanoat (qurilishni qo`shgan holda)	105,4	111,5	108,9
sanoat	105,2	110,8	106,6
qurilish	106,0	114,3	119,0
Xizmatlar	106,4	105,5	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	102,1	105,4	105,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	111,3	106,9	105,6
boshqa xizmat tarmoqlari	105,9	104,8	105,0

2019-yildagi iqtisodiy o`shish sur`ati iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy dinamika bilan bog`liqdir. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo`shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 90,9 % ini tashkil etdi va 5,6 % ga o`tdi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 5,0 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 9,1 % ni tashkil etdi va mos ravishda 5,6 % darajasida o`shish qayd etildi (YaIM mutloq o`shishiga ta`siri 0,6 f.p.).



2019-yilda YaIMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutloq o`shish sur`atlari (o`tgan yilga nisbatan % da)



2019-yil yakunlariga ko`ra, **qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida** 2,5 % darajasida ijobiy o`sinh qayd etildi. Mazkur tarmoqning YaIM mutloq o`sinh sur`atiga ta`siri 0,7 f.p.ni tashkil etdi. Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida ijobiy o`sinh sur`atlari dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,7 % ga va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 1,7 % ga o`shishi bilan bog`liq.

Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda natura shaklida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi quyidagicha bo'lgan:

dehqonchilikda:

- ✓ donli ekinlar – 7 187,4 ming t. (yoki 2018-yilga nisbatan 110,0 %);
- ✓ sabzavotlar – 9 945,5 ming t. (101,9 %);
- ✓ kartoshka – 2 950,9 ming t. (101,3 %);
- ✓ poliz – 1 922,2 ming t. (104,6 %);
- ✓ meva va rezavorlar – 2 739,6 ming t. (101,2 %);
- ✓ uzum – 1 595,2 ming t. (100,3 %).


chorvachilikda:

- ✓ go'sht (tirik vaznda) – 2 465,0 ming t. (yoki 101,4 %);
- ✓ sut – 10 710,8 ming t. (102,3 %);
- ✓ tuxum – 7 757,4 mln. dona (104,0 %).




2019-yilda **sanoat tarmog`ining** qo`shilgan qiymatida 6,6 % ga o`sinh qayd etildi. Sanoat ishlab chiqarishining YaIM mutloq o`sinh sur`atiga ijobiy ta`siri 1,6 f.p.ni tashkil qildi. Sanoat tarmog`idagi ijobiy dinamika asosan ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat tarmog`i qo`shilgan qiymatining 9,4 % (2018-yilda - 7,9 %, 2017-yilda - 4,2 %) ga o`shishi hisobiga ta`minlandi. O`tgan ikki yil davomida sezilarli o'sishdan so'ng, taqqoslama narxlarda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog`i qo`shilgan qiymati hajmining 1,0 % ga pasayishi kuzatildi (o'sish 2018-yilda - 26,5 %, 2017-yilda - 17,6 %).



**2017-2019-yillarda sanoat tarmog`ining yalpi qo`shilgan qiymati hajmi
(joriy narxlarda, mlrd. so'm)**





		2017-yil	2018-yil	2019-yil
	Sanoat	59 570,4	95 803,9	139 812,8

shu jumladan:

		2017-yil	2018-yil	2019-yil
	tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	10 433,7	20 057,0	30 065,8
	ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	43 861,9	68 971,8	100 144,5
	sanoatning boshqa tarmoqlari	5 274,8	6 775,1	9 602,5




2017-2019-yillarda sanoat tarmog`i yalpi qo`shilgan qiymatining o`shish sur`atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)

		2017-yil	2018-yil	2019-yil
	Sanoat	105,2	110,8	106,6
<i>shu jumladan:</i>				
	tog`-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	117,6	126,5	99,0
	ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat	104,2	107,9	109,4
	sanoatning boshqa tarmoqlari	96,5	103,9	101,1

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ida 2019-yilda kuzatilgan salbiy dinamika (hajmlarning taqqoslama narxlarda 1,0 % ga pasayishi) ga qaramasdan, narx omillari ta'sirida ushbu sohaning jami sanoat bo'yicha yaratilgan qo'shilgan qiymat tarkibidagi ulushi 21,5 % gacha o'sishi qayd etildi (2018-yilda - 20,9 %, 2017-yilda 17,5 %). Shunga mos ravishda, sanoatning jami qo'shilgan qiymati tarkibida ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining ulushi 71,6 % gacha pasaydi (2018-yilda 72,0 % va 2017-yilda 73,6 %).



2017-2019-yillarda sanoat tarmog'ining yalpi qo`shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



2019-yil yakunlari bo'yicha, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati qo`shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoatiga (mashina va uskunalardan tashqari) to`g`ri keldi va 36,3 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 13,8 %, to`qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish – 13,4 %, rezina, plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – 9,7 %, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – 7,3 %, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar hamda boshqa transport uskunalari ishlab chiqarish – 6,2 %, elektr uskunalari ishlab chiqarish – 3,2 %, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – 2,5 % hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatining boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarish – 7,6 % ni tashkil qildi.



**2017-2019-yillarda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat
yalpi qo`shilgan qiymatining tarkibi
(jamiga nisbatan % da)**

		2017-yil	2018-yil	2019-yil
	Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat – jami	100,0	100,0	100,0
	Oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish	21,9	15,4	13,8
	To`qimachilik mahsulotlari, kiyim, teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	17,7	15,3	13,4
	Yog`och va qog`oz mahsulotlarini ishlab chiqarish; yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	2,7	2,5	2,0
	Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	1,9	2,0	2,5
	Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	8,5	8,5	7,3
	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	1,6	1,0	1,0
	Rezina va plastmassa buyumlar va boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	11,6	11,1	9,7
	Metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoati (mashina va uskunalardan tashqari)	21,8	28,6	36,3
	Kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,6	0,5	0,8

		2017-yil	2018-yil	2019-yil
	Elektr uskunalar ishlab chiqarish	2,4	3,4	3,2
	Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	1,2	1,6	1,5
	Avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa transport uskunalarini ishlab chiqarish	4,2	7,3	6,2
	Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish; mashina va uskunalarini ta`mirlash hamda o`rnatish	3,9	2,8	2,3

Ma'lumot uchun:

Daslabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda yirik korxonalar tomonidan natura shaklida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi quyidagicha bo'lgan:

- ✓ ko'mir – 4 049,5 ming t. (yoki 2018-yilga nisbatan 97,0 %);
- ✓ neft – 698,6 ming t. (93,7 %);
- ✓ tabiiy gaz – 59 460,0 mln. kub metr (98,4 %);
- ✓ gaz kondensati – 2 098,3 ming t. (97,8 %);
- ✓ chaqiq tosh – 1 244,0 ming t. (75,8 %);
- ✓ shag'al – 508,0 ming t. (126,6 %);
- ✓ kaolin – 377,2 ming t. (129,3 %);
- ✓ yengil avtomobillar – 271 113 dona (122,9 %);
- ✓ yuk avtomobillari – 5,320 dona (125,6 %);
- ✓ avtomobil dvigatellari – 200,6 ming dona (126,4 %);
- ✓ avtobuslar – 1 534 dona (161,6 %);
- ✓ traktorlar – 2 022 dona (58,2 %);
- ✓ portlandsement – 9 681,1 ming t. (115,9 %);
- ✓ dizel yoqilg'isi – 1 030,5 ming t. (95,3 %);
- ✓ avtomobil benzini – 1 025,1 ming t. (89,4 %);
- ✓ tamaki mahsulotlari – 11 504,0 mln. dona (105,0 %);
- ✓ elektr energiyasi – 61 640,7 mln. kVt / soat (98,7 %);
- ✓ issiqlik energiyasi – 31 460,9 ming Gkal (109,5 %).

Turar joy majmualarini, ijtimoiy soha va muhandislik infratuzilma ob`yektlarini qurish va kapital rekonstruksiya qilish, shuningdek, sanoatning bazaviy tarmoqlari korxonalarini qurish va modernizatsiya qilish bo`yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish borasida olib borilayotgan keng ko`lamli ishlar natijasida **qurilish ishlari hajmi** 2018-yil bilan taqqoslaganda 19,0 % ga o`tdi. Qurilish tarmog`ining YalM o`shidagi ijobiy hissasi 1,0 f.p.ni tashkil qildi.

Ma'lumot uchun:


Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 16 904,6 mlrd. so'mni tashkil etdi (2018-yilga nisbatan o'sish sur'atlari - 108,5 %, qurilish ishlarining umumiy hajmidagi ulushi - 24,6 %). Shu bilan birga, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 37 593,5 mlrd. so'mni tashkil etdi (2018-yilga nisbatan o'sish sur'atlari - 129,5 %, qurilish ishlarining umumiy hajmidagi ulushi - 54,6 %). Jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 14 356,3 mlrd. so'mni tashkil etdi (2018-yilga nisbatan o'sish sur'atlari - 108,3 %, qurilish ishlarining umumiy hajmidagi ulushi - 20,8 %).

2019-yil yakunlari bo`yicha, **xizmat ko`rsatish sohasining** yalpi qo`shilgan qiymati hajmi 165 053,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018-yilga nisbatan 5,1 % ga o`tdi (YalM o`shidagi hissasi 1,7 f.p.ni tashkil etdi). Shundan, savdo xizmatlari (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) 4,9 % ga, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar 5,9 % ga, tashish va saqlash xizmatlari 4,9 % ga, axborot va aloqa xizmatlari 8,0 % ga va xizmatlar sohasining boshqa tarmoqlari 5,0 % ga o`tdi.

2019-yilda **savdo (avtotransport vositalarini ta`mirlashni qo`shgan holda) tarmog`ining** yalpi qo`shilgan qiymati tarkibida eng katta ulush chakana savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ga to`g`ri keldi va 67,3 % (2018-yilda - 67,3 %, 2017-yilda - 68,2%) ni tashkil etdi. Ulgurji savdo (avtotransport vositalari savdosidan tashqari) ning ulushi 26,0 % (2018-yilda - 26,2 %, 2017-yilda - 26,5 %) ni, avtotransport vositalarining ulgurji va chakana savdosi hamda ularni ta`mirlash 6,7 % (2018-yilda - 6,5 %, 2017-yilda - 5,3 %) ni tashkil qildi.




2017-2019-yillarda savdo tarmog'ining (avtotransport vositalarini ta'mirlashni qo'shgan holda) qo'shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan % da)



2019-yilda **tashish va saqlash** tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibida eng ko'p ulush avtomobil transportiga to'g'ri keldi va 53,3 % ni tashkil etdi (2018-yilda - 55,5 %, 2017-yilda - 63,6%). Mazkur tarmoq umumiy qo'shilgan qiymatida quvur transportining ulushi 17,3 % (2018-yilda - 15,0 %, 2017-yilda - 12,7 %), temir yo'l transportining ulushi 11,9 % (2018-yilda - 11,8 %, 2017-yilda - 10,3 %), yordamchi transport faoliyatining ulushi 10,9 % (2018-yilda - 11,4 %, 2017-yilda - 8,2 %) va havo transportining ulushi 6,6 % (2018-yilda - 6,3 %, 2017-yilda - 5,2 %) ni tashkil etdi.



2017-2019-yillarda tashish va saqlash tarmog'ining qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



Ma'lumot uchun:

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilda barcha transport turlari tomonidan 1 318,9 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 106,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuk aylanmasi 72,9 mlrd. t-km. ga yetdi yoki 2018-yilga nisbatan 102,2 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo'yicha yuk aylanmasi:

- ✓ temir yo'l transporti – 23,5 mlrd. t-km (yoki 2018-yilga nisbatan 102,4 %);
- ✓ havo yo'li transporti – 0,119 mlrd. t-km (96,5 %);
- ✓ quvur yo'li transporti – 33,1 mlrd. t-km (98,4 %);
- ✓ avtomobil transporti – 16,2 mlrd. t-km (110,4 %).

2019-yilda barcha transport vositalari orqali 6 109,4 mln. yo'lovchi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilga nisbatan 102,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yo'lovchi aylanmasi 140,9 mld. yo'lovchi-km. ni yoki 2018-yilga nisbatan 104,1 % ni tashkil etdi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi aylanmasi:

- ✓ temir yo'l transporti – 4,4 mlrd. yo'lovchi-km (101,3 %);
- ✓ havo yo'li transporti – 11,0 mlrd. yo'lovchi-km (124,3 %);
- ✓ avtomobil transporti – 124,9 mlrd. yo'lovchi-km (102,7 %);
- ✓ metropoliten – 0,577 mlrd. yo'lovchi-km (114,6 %).

2019-yilda iqtisodiy o'sishda tarmoqlarning ulushi umumlashgan holda tahlil qilinadigan bo'lsa, YalM o'sishida xizmatlar sohasining hisssasi eng yuqori bo'ldi va

1,7 f.p. ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich 2018-yilda 1,8 f.p., 2017-yilda 2,3 f.p. ni tashkil etgan.


YalMning o'sishiga sanoat tarmog'i ham salmoqli hissa qo'shgan bo'lib, 2019-yilda 1,6 f.p. (2018-yilda - 2,1 f.p., 2017-yilda - 1,0 f.p.) ni tashkil etdi.

2019-yilda iqtisodiyotning "Qurilish", "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" kabi tarmoqlari YalMning mos ravishda 1,0 f.p. (2018-yilda - 0,7 f.p., 2017-yilda - 0,3 f.p.) va 0,7 f.p. (2018-yilda - 0,1 f.p., 2017-yilda - 0,4 f.p.) ga o'sishiga hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning oshishi hisobiga YalMning 0,6 % darajasida o'sishi ta'minlandi (2018-yilda 0,7 f.p. va 2017-yilda 0,5 f.p.).



**2019-yilda YalM o`shida tarmoqlarning hissasi
(jamiga nisbatan % da)**




2019-yil yakunlari bo'yicha, kichik tadbirkorlik (biznes) sub'yektlari tomonidan 262 984,4 mlrd. so'm miqdorida qo'shilgan qiymat yoki iqtisodiyotda yaratilgan jami qo'shilgan qiymat hajmining 56,5 %i yaratildi. Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymatda kichik tadbirkorlik (biznes) ning ulushi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 98,6 %, qurilishda 78,7 %, xizmatlar sohasida 40,7 % va sanoatda 31,1 % ni tashkil etdi.

Ma'lumot uchun:

2019-yil davomida 92,9 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklaridan tashqari) tashkil etildi va bu ko'rsatkich 2018-yildagiga nisbatan 1,9 barobar ko'pdir. Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p soni savdo (39,1 %), sanoat (21,0 %), qurilish (9,4 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (8,0 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (7,8 %), tashish va saqlash (3,2 %) sohalarida tashkil etildi.




2019-yilda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIMda kichik tadbirkorlik (biznes)ning ulushi (YaQQga nisbatan % da)



2019-yilda YaIM deflyatori indeksi 2018-yilning mos davridagi narxlarga nisbatan 119,2 % ni tashkil etdi. YaIM tarkibida deflyator indeksining yuqori ko'rsatkichlari sanoat tarmog'ida - 136,9 % (xususan, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash tarmog'ida - 151,4 %; ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida - 132,7 %; sanoatning boshqa tarmoqlarida - 140,2 %) va boshqa xizmat tarmoqlarida - 128,1 % qayd etildi.


Respublikaning o'rtacha darajasi (119,2 %) dan past bo'lgan deflyator indeksleri qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (112,1 %), qurilishda (113,7 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (114,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqada (110,8 %) va mahsulotlarga sof soliqlarda (96,6 %) kuzatildi.




2017-2019-yillarda YalMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilga nisbatan % da)




YalM



Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi




Sanoat




Qurilish




Savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar




Tashish va saqlash, axborot va aloqa



Boshqa xizmat tarmoqlari



Mahsulotlarga sof soliqlar



Makroiqtisodiy indikatorlar
va milliy hisoblar boshqarmasi
Tel.: 71 230-80-28 (30)